NAZARIYA VA AMALIYOT TA’LIM TIZIMIDAGI MUHIM O’RNI

Tohirov N.N
Hakimov A.A.
Mustaqil ilmiy izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash orqali kasbiy kompetensiyasi rivojlangan, zamonaviy fikrlaydigan yetuk kadrlar tayyorlashga erishish bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, nazariya, amaliyot, shakl, metod, dialektik ta’limot, ko‘nikma, kasb.

Аннотация. В данной статье описывается достижение подготовки современных мыслящих зрелых кадров с развитой профессиональной компетентностью путем обеспечения взаимной интеграции теории и практики обучения в системе профессионального образования.

Ключевые слова. Интеграция, теория, практика, форма, метод, диалектическое учение, умение, призвание.

Annotation. This article describes the achievement of advanced, modern-minded mature training of professional competence by ensuring the mutual integration of theory and practice in the training of personnel in the professional education system.

Keywords. Integration, theory, practice, form, method, dialectical doctrine, skills, profession.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy variativ ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish jadal amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ta’limda nazariya va amaliyot tendensiyasini yanada rivojlantirishda ta’limning integrativ tashkiliy funksiyasini kengaytirish, o‘qitish metodikalarini takomilashtirish, bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish kabi integratsion jarayonlar muhim o‘rin tutadi. Integratsiya bo‘yicha pedagog olimlar va amaliyotchilar tomonidan ilmiy asoslangan o‘quv fanlari turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o‘rganish, turli o‘quv fanlaridan dars beradigan pedagoglar faoliyatlarini optimallashtirish, ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va ta’lim sifatini yaxshilash yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yo‘nalishlarning har birini aniq

o‘z maqsadi bo‘lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlar talab etiladi.

Mamlakatimizda professional ta’lim O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi [1]. O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim va iqtisodiyotni shakllantirishning istiqbollari va ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda bugungi uslublar va texnologik istiqbollar, mehnat bozorida kadrlarga bo‘lgan haqiqiy ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari va “Hayot davomida o‘qitish” prinsipi shaxsni o‘qitish uchun mo‘ljallangan [2].

Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida yangi korxonalar, zavod-fabrikalar va muassasalar qurilib, ishga tushirilib, ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilmoqda. Bularning barchasi malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabni oshirmoqda, har bir sohaning rivoji, loyihalarning muvaffaqiyati bevosita yetuk kadrlar bilan bog‘liq.

Shu sababli so‘nggi yillarda ta’lim tizimi modernizatsiya qilindi, ilg‘or ta’lim shakllari va texnologiyalari joriy etildi. O‘rta darajadagi mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimi hamda professional ta’lim muassasalarining yangi shakli tashkil etildi [3].

Bunda kasb ta’limida pedagogik nazariya va amaliyotni o‘zaro singdirishning nazariy jihatlariga e’tibor berdik.

Ta’limdagi nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligi mezonlari pedagogika sohasida, ta’lim to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ilmiy tizimida qo‘llaniladi. Pedagogik amaliyot pedagogika taraqqiyotining 1-davri bo‘lib, uning boshlanishi barvaqt jamiyatga borib taqaladi va hozir ham davom etadi [4].

Ta’lim tarixi bo‘yicha mutaxassis P.Monroning so‘zlariga ko‘ra, o‘quv amaliyoti o‘quv ishlari davomida shakllanadi va takomillashadi. “Hayot ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha amaliy ishlar tobora aniqlashib borar ekan, ishning birinchi bosqichida barcha zarur usullarni o‘rgatish mexanizmi aniqlanadi”. Ta’lim ish sifatida, nazariy ma’lumotlarni talab qiladi. Amaliy foydalanish uchun qonun va qoidalarni yaratishga imkon beradigan ta’limotlar va umumlashtirib, tizimlashtirilgan ma’lumotlardan iborat dars pedagogikasi inson mohiyati va uning mavjudligini falsafiy tushunish natijasida paydo bo‘ladi [5].

Nazariya va amaliyot integratsiyasining ilmiy sabablariga quyidagilar: ilg‘or bilim falsafasi, nazariya va amaliyotning aloqasi va birligi haqidagi dialektik ta’limot, ta’lim vazifalari doktrinasi; talabalarni malakali o‘rganish jarayonida nazariya va amaliyotni birlashtirish; nazariya va amaliyotni birlashtirishga asoslangan kasbiy pedagogik faoliyatni takomillashtirish usullari sifatida texnologiyalarni o‘rgatish g‘oyalari [88] kiradi.

Professional ta’limning pedagogik maqsadi o‘quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish, ularni natijaviy va miqdoriy baholarda ifodalash

bo‘lib, ta’limning maqsadi va yakuniy natijasi o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Maqsad – o‘quvchilarning kasbiy va pedagogik vazifalarni hal qilishga motivatsion tayyorligini va malakali ish sohasini rivojlantirishdan iborat.

Professional pedagogikaning nazariyasi va real tushunchalariga e’tibor qaratdik.

Nazariya – malakali mutaxassis tayyorlash mavzulari bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘z ichiga olgan muayyan mazmundagi tizimlashtirilgan axborotlar majmuasidir. Nazariy bilimlar talabalar tomonidan ma’ruzalar, taqdimotlar, turli manbalardan o‘qish, raqamli ta’lim manbalari va o‘z-o‘zini o‘rganish orqali shakllanadi.

Amaliyot – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning mashg‘ulotda birgalikdagi faoliyati, o‘qituvchi faoliyatining turlari, kasbiy muammolarni o‘rgatish va hal qilish, ta’lim jarayonida haqiqiy kasbiy vaziyatlarni modellashtirishdir. Amaliyotning mazmuni quyidagilarni: amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarda, amaliyotlarda o‘quvchilarni kasbiy tayyorlashning faol usullari: treninglar, o‘yinlar, o‘qituvchi va o‘quvchi rollarini bajarish, interaktiv mashg‘ulotlar, o‘qituvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha mustaqil ishlash, ishbilarmonlik o‘yinlari va h.k. o‘z ichiga oladi.

Amaliyot davrida o‘quv faoliyatini tashkil etishning individual, guruhli, frontal shakllari, doimiy kompozitsion juftlikda, o‘zgaruvchan tarkibli juftlikda ishlash shakllaridan foydalaniladi.

Muvofiqlik tamoyili tizimdagi barcha elementlarning tartibliligi va izchilligini, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonining mantig‘ini nazarda tutadi, tizim tarkibida harakatlar ketma-ketligi orqali amalga oshiriladi. Nazariy tadqiqotlar jarayonida aniqlangan tamoyillar asosida ishlay oladi. Uzluksizlik prinsipi tizimning funksional barqarorligi uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. //www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-sonli qarori. //www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.

4. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. // Monografiya. – T.: O‘zbekiston, 2017.